

BIR BOR EKAN BIR YOQEKAN



QARG'A BILAN QARQARANING
JANJALI



QARG'A BILAN QARQARANING JANJALI

"Kafolat print company"
Toshkent – 2021

UDK: 398.21 (575.1)

BBK: 82.3 (5O')

Q69

Qarg'a bilan qarqaraning janjali : [ertaklar]:
Bolalar uchun / To'plab nashrga tayyorlovchi D.
Dilhoq. - T. : Kafolat print kompany, 2021. - 16 b.

To'plab nashrga tayyorlovchi
Dilorom Dilhoq

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/17-72

ISBN 978-9943-395-05-3

© «Kafolat print kompany» 2021-yil

CHIVINLAR NEGA BUNCHALIK MAYDA?

Butun borliqni yaratuvchi Shiva odam va hayvonlar bilan birga chivinlarga ham jon ato etgan ekan.

Uzoq o'tgan zamонларда chivinlar grifdan ham katta bo'lishgan ekan, chakaklari juda bahaybat bo'lib, ular haddan tashqari ochko'z, yemishlari esa faqat odamlar ekan. Bu qanotli maxluqlar hamla qilgan odamlar o'rnida bir zумнинг o'zida faqatg'ajib tashlangan suyaklargina qolarkan.

Juda ko'pchilik bulardan qutulishning yo'lini axtarisharkanu, lekin hali hech kim uddasidan chiqolmas ekan. Chivinlar esa hamon odamlar ichidan o'z qurbanini axtarib yurar, ularдан yurak oldirib, zada bo'lib qolgan odamlar, chivinlarga yem bo'lish kimga nasib qilarkan, deb chek tashlashar ekan. Chek tushgan kishi esa kechqurun hamma bilan yig'lab vidolasharkan.

Bir kishining judayam aqli qizi bo'lган ekan. O'sha qiz har doim

tunda yo'lovchilarning chivinlarga yem bo'lishiga achinarkan: «Agar ahvol shunday davom etaversa, chivinlar dunyodagi hamma odamlarni yeb bitirishadi, shu paytgacha bu yovuzlikdan qutulish yo'lini hech kim topmagan ekan, buni endi mana men topaman». U shunday qarorga kelib, ota-onasining huzuriga kelibdi va o'z niyatini bayon qilibdi.

- Men hozir chekiga chivinlarga yem bo'lish tushgan odamlar bilan birga ketmoqchiman, — debdi.

Bu gapni eshitib, avval ota-onanining dahshatdan tillari kalimaga kelmay qolibdi, keyin esa baravariga baqirib, urisha ketishibdi:

- Nima balo, aqldan ozdingmi? Hamma bu baloxo'r larga yem bo'lishdan qochsa, sen o'zingni o'lim o'pqoniga otmoqchimisan?!

Shunday deb ota-onan qizlarini yo'ldan qaytarishga rosa urinishibdi, lekin qiz o'jarlik bilan o'z so'zida mahkam turib olibdi.

Axiyri, qizlarining qaysarligidan g'azabi qaynagan ota-onan:

- Modomiki bizga qulqoq osmas ekansan, yo'qol, ikkinchi bu yerga qadam bosma! — deyishibdi.

Ota-onasidan jahl usti bo'lsa-da ruxsat olgan qiz juda sevinib ketibdi va chivinlar tunda ziyofat qiladigan joyga qarab yugurib ketibdi. U yerda o'z ajallarini kutib o'tirgan g'amgin odamlarga qarab shunday debdi:

- Kimda-kim o'lim changalidan qu-tulmoqchi bo'lsa, diqqat bilan mening aytganlarimni tinglab, bajarishlari lozim. Hozir, kun botmasdan tezroq tevarak-atrofdan shox-shabba yig'ib kelinglar va halqa qilib aylantirib o'ranglar. Chivinlar uchib kelishi bilan biz aylana ichidan turib olov yoqamiz. O'zimizni olov devori bilan o'raganimizdan keyin chivinlar uni yorib o'tolmaydi.

Hamma narsa xuddi dono qiz aytganidek bo'libdi. Kech kirib, qorong'i tushgach, odamxo'r chivinlar uchib kela boshlashibdi, shunda birdan alanga ko'tarilibdi, chivinlar bu alangadan sarosimaga tushib orqaga qarab qochishibdi. Keyin esa

bir joyga to'planishib, bundan buyon nima qilish kerakligi haqida maslahat qilishga tushishibdi.

— Bugundan boshlab biz endi odamlar ustiga ochiqchasiga uchib borolmaymiz, agar ular sezib qolsalar yana olov yoqib bizni haydashadi. Ochimizdan o'lmaslik uchun boshqa biror-bir chora o'ylab topishimiz kerak bo'ladi. Kelinglar, ulug' va marhamatli Shivaga borib, bizni pashshadan ham kichkina qilib yaratishini so'raymiz, toki boyagi-boyagidek odamlarning qonidan oziqlanishimiz mumkin bo'lsin.

Ular shunday qarorga kelishgach, butun galasi bilan Shiva qarorgohiga uchib borib, o'z istaklarini bayon qilishibdi. Shiva ularning iltimosini inobatga olib, chivinlarni hozirgi kunda ko'rib turganimizdek kichkina qilib qo'yibdi.

Odamlar orasiga uchib ketishibdi. Lekin natija ular o'ylaganchalik bo'l-mabdi. Chivinlarning og'izlari juda tor bo'lganligi sababli, odamlarni faqat chaqish bilangina qanoatlanibdilar,

bunga javoban esa odamlar ularni shaf-qatsizlik bilan urib o'ldiraverishibdi, o'zlari esa hech qanday zarar ko'-rismabdi. O'lim dahshatidan bir umrga qutulgan odamlar xursand bo'lishibdi.

Omon qolgan chivinlar yana kengashga to'planishibdi.

— Odamlarga endi bizning kuchi-miz yetmayqoldi, — deyishibdi ular. — Bu og'izlar bilan ularga hujum qilish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Yana Shivaning huzuriga borib, og'zimizni ignadek ingichka va uchli qilishini so'rashga to'g'ri keladi. Ana shundagina odamlarning qonini sezdirmasdan, tezgina so'rib olamiz.

Shunday qilib, ular yana Shiva qarorgo-higa uchib borib, unga o'z iltimoslarini bayon qilishibdi. Shiva ularga:

— Yaxshi, og'izlaringizni xuddi aytganlaringizdek qilib qo'yaman, o'shanda sizlar yana odam qonidan oziqlanaverishingiz mumkin bo'ladi. Lekin shuni bilib qo'yinglarki, bari bir

endi odamlar sizdan ko'ra kuchliroqdir,
— debdi.

Orzulari amalga oshgan chivinlar
yana har tomonga tarqab, odamlar
qonini so'rishga tushishibdi. Lekin
Shiva aytganidek, ularning ko'plari
buning uchun jazosiz qolmas ekanlar.

NAYZA DUMLI BALIQ

Nayza dumli baliqlar
ko'rinishdangina ajoyib
bo'lib qolmay, erkagi urg'ochisining
yelkasiga minib yurishi bilan ham
ajablanarli ekan. Kxmerlar yurtida
xotini hisobiga kun ko'radigan
dangasa erkakni, «xuddi nayza
dumli baliqdek yashaydi», deyishadi.
Nayza dumli baliqlarning qayerdan
paydo bo'lganligi, umri nima uchun
bu taxlitda o'tishi haqida azaldan
shunday rivoyat bor.

Qadim zamonda qirol va uning
sohibjamol xotini o'tgan ekan.
Ular, o'g'illari yo'qligini hisobga
olmaganda, juda baxtli ekanlar.
Bir kuni qirol huzuriga eng kuchli

folbinlarni chaqirib, o'g'il ko'ramanmi, yo'qmi – kitoblariningizdan ko'rib qo'yinglar, debdi. Ular belgilangan vaqtida qirol huzuriga kelishibdi. Uning hurmatini bajo keltirishib, agar qirol xayr-ehsonni katta qilib, ziyofat bersa, o'shandagina qirolichcha unga o'g'il tug'ib berishini aytishibdi. Qirol xuddi ular aytganidek qilibdi, haqiqatdan ham tez orada qirolichcha o'g'il ko'ribdi. Bola juda chiroyli bo'lib, ota-onasi kunu tun uning temasida parvona ekan.

Bola yetti yoshga to'lgan kuni qirolichcha uni saroydagi xiyobonlarga olib borib, o'ynatib kelmoqchi bo'libdi. U o'z qarorini qirolga bayon qilibdiyu, bir qancha mulozimlari bilan xiyobonga yo'l olibdi. Buni qarangki, xuddi o'sha vaqtida garuda degan dahshatli qush yemish axtarib o'sha o'lkalarga borib qolgan ekan. Saroydagi xiyobon ustidan uchib o'tayotib, u bir to'da odamlarni ko'ribdi-da, o'qdek otilib pastga tushibdi, o'rtadagi bolani changallab, osmonga uchib ketibdi. O'g'lining qanday baloga duchor bo'lganini bilgan onaning qayahvolga

tushganini aqlga sig'dirib ham bo'lmaydi. Lekin hozir uning qo'lidan nima ham kelardi? Bolasini olib ketayotgan dahshatli qushning ketidan dodlab qolaveribdi. Qush ko'zdan yo'qolgach esa o'ziga kelib, qirol huzuriga chopibdi va unga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Boshiga tushgan falokatdan qirolning tili kalimaga kelmay qolibdi, anchadan keyin u yana folbinlarni chaqirib, ulardan o'g'lining taqdirini so'rabdi. Folbinlar kitob ko'rishib, maslahatlashib, bir ovozdan shunday deyishibdi:

— Shahzoda hali tirik. U garudaga yem bo'lmaydi.

Buni eshitib, qirolning ruhi ko'tarilibdi, xizmatkorlarni chaqirib, katta tam-tam yasashlarini, uni chalib, shahzodani topib kela oladigan eng kuchli va botir odamlarni yig'ishni buyuribdi. Lekin saroy atrofidan bunday qahramon topilmabdi. Xizmatkorlar shahardan tashqariga chiqib, u yerlarga ham jar solibdilar, bu ovoza nihoyat dengiz sohilida yashovchi aholiga ham yetib kelibdi. Mana shu yerda yashovchi Nam

Krix ismli qiz jarchilarga, hoziroq shahzodani qidirish uchun jo'nashi mumkinligini ma'lum qilibdi. Jarchilar uning qarorini o'sha zahoti qironga yetkazishibdi. Yurak-bag'ri ezilgan qiroq qizning botirligidan behad xursand bo'libdi va agar u shahzodani topib kelsa, unga juda katta hadyalar qilishga va'da beribdi. Shunday qilib Nam Krix yo'lga otlanibdi.

Shahzodani changallab olgan garuda o'sha paytda dengiz ustida ketayotgan ekan. U bir orol ustiga kelganda birdan shamol ko'tarilib, bo'ron turibdi. Shamolni surib tashlash uchun changalini yozib yuborgan ekan, shahzoda toshdek pastga uchib tushibdi. Lekin shamolning tezligi susayib, shahzoda qumli sohilga yiqilib, hushidan ketibdi. Ertalabki shabada uni o'ziga keltiribdi. Och qolgan garuda esa changalidagi o'ljani yo'qotib, o'zini har tomonga otsa hamki, shahzodani topolmabdi.

Nam Krix esa odamlardan bola changallab uchgan garudani qayerda ko'rghanliklarini surishtiribdi. Qayoqqa borish kerakligini bilgach,

qo'rqmasdan o'zini to'lqinlar bag'riga otibdi va dengizda bola o'tirgan qumli sohilgacha suzib boribdi. Qiz shahzodaga hamma voqeani tushuntirib beribdi va uni yelkasiga o'tqazib, kelgan yo'liga qaytibdi. Lekin yo'lning yarmiga yetganda dengizda to'lqin mavj uribdi va Nam Krix kbeniga o'ralib qolibdi, shunda u oyog'ini yechib yubormoqchi bo'lib orqasiga o'girilgan ekan, shahzoda bo'g'ziga suv tiqilib o'lib qolibdi. Qioldan qo'rqbmi yoki shahzodaning dengizga cho'kib ketganidanmi o'sha zahoti Nam Krix ham o'zini dengiz qa'riga tashlabdi. Shunday qilib, ularning ikkalasi ham dengiz tubiga cho'kib ketibdi.

Dengiz qa'rida ular nayza dumli baliqlarga aylanib qolishibdi. Mana shuning uchun erkagi kichkina bo'lib, umr bo'yi urg'ochisining yelkasiga yopishib, nima yesa shuni yeb yurar ekan. Yana shunisi ham borki, agar erkak nayza dumli baliq urg'ochisining yelkasidan tushib ketsa, o'sha zahoti hayot bilan vidolasharkan.

QARG'A BILAN QARQARANING JANJALI

Aytishlaricha, qadim zamonlarda hamma qushlar bir xil rangda bo'lib, faqat jussalari bilangina ajralib turisharkan, shuning uchun ular uchayotganda hamma adashtirarkan. Oxiri bu o'zlarining ham joniga tegibdi. Keyin bu holga chek qo'yish kerak degan qarorga kelib, hammasi bir joyga yig'ilishib maslahatlashibdi. Ular anchagacha o'zaro talashishibdi, so'ng shunday qarorga kelishibdi:

- Bir-birimizdan ajralib turishimiz uchun har birimiz alohida rangga bo'yalishimiz kerak.

Qushlar ana shunday qarorga kelib, qarqarani bezovchi-bo'yoqchi qilib saylashibdi, u kuni bo'yi qushlar orasida yurib, kim qaysi rangni xohlasa o'sha rangga bo'yayveribdi. Hammani bo'yab bo'lib, oxiri o'zi bilan qarg'a qolibdi. Shunda qarqara qarg'adan so'rabdi:

- Sen qanaqa rangda bo'lishni xohlaysan?

Qarg'a esa unga xushomad qilib javob beribdi:

— Oh, qarqarajon, sen axir rassomsan-ku, sening diding juda yaxshilagini bilaman, faqat iltimos, meni chiroyliroq rangga bo'yab qo'ysang.

Bu paytga kelib qorong'i tushibdi. Qarqara bir oz o'ylanib turgach:

- Mana bundayqilsak, - debdi, - kun yorug'ida sen meni bo'yab qo'yasan, chunki kechasi yaxshi ko'ringan rang kunduzi xunuk ko'rinishi mumkin, shuning uchun meni kun botmay turib bo'yab qo'y, so'ng men seni bo'yab qo'yaman, shu bilan ikkimizning ham ishimiz bitadi.

Ular ana shunga kelishishibdi. Qarg'a qarqarani juda chiroylি rangga bo'yabdi, u ishini bitirishi bilan atrofni qorong'ilik bosibdi. Ishni tezroq tugatish payida bo'lgan qarqara idishga ko'mir solibdi-da, qarg'ani oxirgi patlarigacha sidqidildan bo'yab qo'yibdi. Qarg'a esa qorong'i bo'lgani uchun qarqara uni qanaqa rangga bo'yab qo'yanini ko'rmabdi, qarqara ham qorong'ida uning nimaga

o'xshab qolganini ko'rmasdan, bir-biridan xursand bo'lganicha, quyuq xayrlashishibdi.

Ertasiga, tong otgach, o'zini motamsaro qop-qora rangda ko'rgan qarg'aning g'azabi qaynab ketibdi. U jahl bilan qarqarani izlab topib, undan bu yovuzlikning sababini so'ramoqchi bo'libdi. Qarqara esa bunday badbashara, xunuk qushni ko'rib qo'rqqanidan qochib qolibdi, lekin u o'zining ham juda ochiq ranglarga bo'yalganidan uyalib, faqatgina o'rmonning qalin joylaridagina qarg'adan qochib, jon saqlab yurarkan.

Qarg'a bilan qarqara orasidagi murosasizlik ana shundan boshlangan ekan. Agar qarg'alar biron-bir joyda qarqara borligini bilib qolishsa, ular to'pi bilan uchib borib, to uni o'lдirmaguncha cho'qilayverisharkan. Shuning uchun ham qarqaralar o'zlariga ozuqa topish uchun faqat tunda, ya'ni qarg'alar uqlab yotganidagina chiqishadi, kunduz kuni esa o'rmonda berkinib yotishadi.

Adabiy-badiiy nashr

**QARG'A BILAN QARQARANING
JANJALI**

Bolalar uchun

Muharrir D. Dilhoq

Rassom R. Solihov

Kompyutyerda sahifalovchi E. Yusupova

Terishga 02.01.2021 yilda berildi. Bosishga 01.03.2021
yilda ruxsatetildi. Bichimi 84x108 1/32. Ofsetbosma. Shartli
bosma tobog'i 1,0. Nashr tobog'i 1,0. Adadi 3000.
18-sonli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

«Kafolat print kompany»
MChJ nashriyotida tayyorlandi.
Istiroxat ko'chasi, 12- uy.
Tel.: (71) 228-48-60

QARG'A BILAN QARQARANING JANJALI



ISBN 678-9943-395-05-3

A standard barcode representing the ISBN 678-9943-395-05-3.

9 789943 395053